Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 30-sentabr, № 204 (9375) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

NAVBATDAGI MAQSAD — YANGI O‘ZBEKISTONNI JAHON SHAXMAT MARKAZIGA AYLANTIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev shaxmat va parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoalari a’zolari, ularning yaqinlari, ustoz va murabbiylari bilan uchrashdi.



Davlatimiz rahbari shaxmatchilarimizni Samarqandda o‘tkazilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasidagi tarixiy g‘alaba bilan yana bir bor tabrikladi.

– Ikki karra Olimpiada chempioni degan yuksak va sharafli unvon barchamizga, butun O‘zbekiston xalqiga muborak bo‘lsin! – dedi Prezidentimiz.

Samarqanddagi Olimpiadada 200 dan ortiq mamlakatlardan 2 mingga yaqin shaxmatchi, jumladan, kuchli grossmeysterlar va amaldagi chempionlar ishtirok etdi. Ana shunday raqobatda yurtdoshlarimiz O‘zbekiston bayrog‘ini eng balandga ko‘tardi. G‘alabaning o‘z yurtimizda, xalqimiz ko‘z o‘ngida qo‘lga kiritilgani unga alohida ma’no bag‘ishladi.

Musobaqani bevosita kuzatish uchun Samarqandga 60 mingdan ortiq mahalliy va xorijlik mehmonlar keldi. Qariyb 500 ming kishi joylardagi muxlislar uchun hududlarda, teleekran va internet orqali esa millionlab vatandoshlarimiz bahslarni hayajon bilan kuzatdi.

Mamlakatimiz yetakchisi hal qiluvchi o‘yinlarga to‘xtalib, amaldagi Olimpiada chempioni Hindistonga qarshi uchrashuvni alohida esladi. Nodirbek Yoqubboyev Nihal Saringa qarshi partiyada og‘ir vaziyatga tushganiga qaramay, kurashni oxirigacha davom ettirdi. Raqibning xatosidan foydalanib amalga oshirgan taktik yurishlari jamoamizga hal qiluvchi g‘alabani olib keldi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston yakka peshqadamga aylandi. Shaxmatchilarimiz Xitoy terma jamoasini 3:1 hisobida yengdi, jahon reytingida birinchi o‘rinda turgan, olti karra Olimpiada chempioni AQSh jamoasidan ham ustun keldi.

Nodirbek Abdusattorov musobaqani birorta mag‘lubiyatsiz o‘tkazib, birinchi taxtada oltin medalga sazovor bo‘ldi. Uning jahon reytingida uchinchi o‘rinda turgan Fabiano Karuanaga qarshi murakkab endshpilda qozongan g‘alabasi ham alohida e’tirof etildi.

Davlatimiz rahbari Javohir Sindarovning Nomzodlar turniridagi tarixiy muvaffaqiyatini yodga oldi. U Olimpiadada ham sovuqqonlik va barqarorlik ko‘rsatdi. Prezidentimiz Javohirga jahon toji uchun bo‘lajak bellashuvda butun O‘zbekiston xalqi ishonishini ta’kidladi.

Olimpiadada ilk bor qatnashgan Muhiddin Madaminov hal qiluvchi kunda ukrainalik Roman Dextiarovni qora donalarda yengib, jamoaga oltin medal uchun zarur ochkoni keltirdi. Shamsiddin Vohidov esa amaldagi jahon chempioni Gukeshga qarshi qora donalarda tengma-teng kurashdi. Ta’kidlanganidek, bu g‘alabada jamoa har bir a’zosining hissasi bor.

O‘zbekiston Olimpiadada erkaklar va ayollar o‘rtasida jami oltita terma jamoa bilan ishtirok etdi. Erkaklar o‘rtasidagi ikkinchi jamoamiz jahon reytingida oltinchi o‘rinda turgan Niderlandiyani yirik hisobda mag‘lub etdi. Uchinchi jamoa a’zosi, 17 yoshli Asrorjon Omonov sakkizta o‘yinning yettitasida g‘alaba qozondi.

– Bizda 2-3 nafar shaxmatchi emas, balki butun boshli kuchli avlod bor desak, bu ham haqiqat, – dedi Prezidentimiz.

Ayollar terma jamoalari ham matonat ko‘rsatdi. Birinchi jamoa 11 turning yettitasida g‘alaba qozonib, kuchli raqiblar bilan tengma-teng o‘ynadi. Afruza Hamdamova, Gulruxbegim Tohirjonova, Umida Omonova, Nilufar Imomqo‘ziyeva, Guldona Karimova va boshqa shaxmatchi qizlarning mehnati e’tirof etildi. Davlatimiz rahbari kelgusida o‘zbek shaxmatchi qizlari ham Olimpiada shohsupasining eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilishiga ishonch bildirdi.

Samarqandda o‘tgan uchinchi FIDE parashaxmat olimpiadasida O‘zbekiston terma jamoasi ilk bor bronza medalini qo‘lga kiritdi. Selbi Kakishova yetti o‘yinda olti ochko jamg‘arib, o‘z taxtasida kumush medalga sazovor bo‘ldi. Abdulaziz Bahodirov shaxsiy hisobda bronza medalini oldi, Ahadxon Kimsanboyev esa musobaqani mag‘lubiyatsiz yakunladi. Prezidentimiz parashaxmatchilarning irodasi va mehnatini yuksak baholadi.

Uchrashuvda ushbu natijalar ortida sportchilarning ota-onalari, birinchi ustozlari, murabbiylari va ularni qo‘llab-quvvatlagan jamoalar turgani ta’kidlandi. Prezidentimiz jahon chempioni Rustam Qosimjonov tajriba va bilimini yangi avlodga yetkazib kelayotganini alohida e’tirof etdi.

– Ustozning eng katta g‘alabasi – shogirdlarining undan ham baland marralarga chiqishidir! – dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining FIDE tomonidan “Eng yaxshi federatsiya” deb e’tirof etilgani, Rustam Qosimjonov FIDEning faxriy vitse-prezidenti, Hulkar Tohirjonova esa Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy prezidenti etib saylangani mamlakatimizning jahon shaxmatidagi nufuzi yuksalayotganidan dalolat ekani qayd etildi.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON VA ERON PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas‘ud Pezeshkiyon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Eron Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat va mas’uliyatli davlatchilik faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Muloqot davomida keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish, xususan, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni yanada faollashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston va Eron Prezidentlari mintaqaviy kun tartibi hamda bo‘lajak tadbirlar rejasi yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘zA.

O‘ZARO HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISHDA MUHIM VOSITA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva to‘rtinchi O‘zbekiston – Belarus parlamentlararo forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Belarus Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya Kochanova bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Suhbat chog‘ida parlamentlar o‘rtasida muntazam muloqotni davom ettirish, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda ularning rolini kuchaytirish, qo‘mita va parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha guruhlar o‘rtasida aloqalarni yanada faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, farmatsevtika, elektrotexnika, to‘qimachilik va boshqa sohalarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, tadbirkorlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni rivojlantirish hamda o‘zaro savdo hajmini oshirishda parlamentlar rolini kuchaytirish zarurligiga e’tibor qaratildi.

3

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, sohada islohotlar samaradorligini oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or tajribalar, innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlariga qo‘shayotgan munosib hissasi, o‘quvchi yoshlarga zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni o‘rgatish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ma’nan yetuk, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirish yo‘lidagi katta xizmatlari, farzandlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ibratli faoliyati, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki, shuningdek, yurtimizda ta’limga oid investitsiya loyihalarini amalga oshirib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

«O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi» faxriy unvoni bilan

Saidov Ergash Allanazarovich – Denov tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Saparbayev Azimbay Saburovich – Amudaryo tumanidagi 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni bilan

Shamukaramov Kamil Tuygunovich – Chinoz tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Xakimova Raxima Salijonovna – Namangan shahridagi 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Namangan viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

Raimov Ismatulla – Zomin tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jamoatchilik kengashi raisi, Jizzax viloyati

Soleev Axmadjon – Samarqand davlat universitetining o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator” faxriy unvoni bilan

Kurbonov Mirtemir Shodiyevich – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi” faxriy unvoni bilan

Muqimov Botirbek Ashurovich – Oltinko‘l tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Najmidinov Vaxiddin Ergashevich – Sportning qishki va murakkab texnik turlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining bahodirlar o‘yinlari va tosh ko‘tarish bo‘limi murabbiysi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni bilan

Uteeva Gulnora Lukmanovna – R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining o‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limi jo‘rnavozi

(Davomi 2-betda).

Faxr

AQL VA TAFAKKUR JASORATI BU

Xabar berganida yillar qatidan
Sirlarni bag‘rida jam etgan moziy.
Qismat tuhfa etgan hayot xatidan
Kimdir bo‘ldi faqir, kim esa g‘oziy.

Dunyo aylanarkan to‘xtamay gir-gir,
Ishini qilarkan charxi kajraftor.
Bir yuksak rutbani baxsh etdi taqdir,
Hech zot qilolmadi bu baxtni tor-mor.

Qalbiga tuganmas qanoat tilab,
O‘zin g‘oliblikka shayladi bu yurt.
Ulug‘lar yo‘llarin asta oralab
Dunyoni hangu mang ayladi bu yurt.

O‘tsa hamki mana necha oy, yillar,
Qancha o‘zgarmasin dunda shakl, rang.
Hujumga hozirdir otlaru fillar,
Bugun taxta uzra borar ezgu jang.

Shohni mot qilganni ko‘rganmisiz hech,
Aql va tafakkur jasorati bu.
Mard bilan maydonda yurganmisiz hech,
Betimsol ona yurt harorati bu!

Olam ham hayratda bu kurashlardan,
Raqibni shoshirib qo‘ygan vaziyat.
Mardona va keskir zo‘r yurishlardan,
G‘alaba qozondi har ezgu niyat.

To‘lqinlar oralab yurdi hayajon,
Millionlab nigohlar topolmadi joy.
Kim g‘olib bo‘lmaydi kelganda imkon,
Boshingda jilmayib tursa quyosh, oy?!

Ajdodlar ruhini jo etib qalbga,
Ana, qarang, yovqur o‘g‘lonlar kelar.
Har biri o‘xshaydi taptortmas alpga,
Buni ko‘rgan ochun yana tan berar.

Dillarni bezagan yorug‘ xush kalom,
Bezak berar ekan toki zafarga.
Illo, yetaklasin ularni mudom
Yurtboshi tilagi g‘alabalarga.

Yurtim kundan-kunga ko‘tararkan qad,
Saodatu tinchlik quyoshi kulsin.
Ezgulikning qo‘li bo‘lsin sarbaland,
Yovuzlik lashkari doim mot bo‘lsin!

O‘tkir RAHMAT

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 30-sentabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Mamajanov Alijon – Farg‘ona davlat universitetining tilshunoslik kafedrasi professori, Farg‘ona viloyati

Meliyev Abduhalim Xurramovich – Samarqand shahridagi “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan 59-maktab-internati direktori, Samarqand viloyati

Muxamedbayeva Zamira Abduljaparovna – Toshkent kimyo-texnologiya institutining Yangiyer filiali kimyoviy texnologiyalar kafedrasi professori, Sirdaryo viloyati

Nishanov Nurmuxamad Xajimamatovich – Uchqo‘rg‘on tumanidagi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Ochilov Shuxrat Saidovich – Buxoro tumani sport maktabining dzyudo bo‘yicha murabbiysi, Buxoro viloyati

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Yo‘ldashev Dilmurod Karimjonovich – Shahrixon tumani ixtisoslashtirilgan maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Ko‘chkinov Ziyodullo Axmedovich – Bandixon tumani ixtisoslashtirilgan maktabining tasviriy san’at fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Mirtadjiyeva Karamat Taxirovna – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Astronomiya instituti laboratoriya mudiri

Sayimova Sarsengul Alpisbayevna – Qorao‘zak tumanidagi 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Safarov Eshkabul Yuldashovich – O‘zbekiston Milliy universitetining geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrasi professori

Uzakov Zair – Qarshi davlat texnika universiteti kompyuter tizimlarining dasturiy va texnikaviy ta’minoti kafedrasi professori, Qashqadaryo viloyati

I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Vinogradova Valentina Ivanovna – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘simlik moddalari kimyosi instituti katta ilmiy xodimi

Gofurova Saodat Musayevna – Marg‘ilon shahridagi 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Pardayev Shukurulla Bozorovich – Boyovut tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Usmanova Nargiza Mirzadavlatovna – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 190-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna – Jizzax davlat pedagogika universitetining tabiiy fanlar fakulteti dekani, Jizzax viloyati

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Abdullayeva Gulnoz Xasanovna – Urganch tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internatining biologiya fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Bekmurodova Sojida O‘ralovna – Yakkasaroy tumanidagi 160-ixtisoslashtirilgan maktabining texnologiya fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Isxakova Mavlyuda Raxmanovna – Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Muratova Gulbaxor Kamilevna – Yunusobod tumanidagi “Erudite education” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari, Toshkent shahri

Nurova Nargiza Tashevna – Karmana tumanidagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 25-maktab-internatining yakka eshitish fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Xakimova Abidaxon Azimjonovna – Asaka tumanidagi 57-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori, Andijon viloyati

Xoliqov To‘raqul Jo‘rayevich – G‘ijduvon tumanidagi 28-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Shodiyev Bektosh Shokirovich – Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Angela Papenburg – Germaniya Federativ Respublikasining “GP Gnter Papenburg AG” kompaniyasi direktorlar kengashi a’zosi

Bayriyeva Almagul Qurbanovna – Qoraqalpoq davlat universitetining siyosatshunoslik va ma’naviyat asoslari kafedrasi mudiri

Begisheva Laura Dyusheevna – Xonobod shahridagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Buzikova Gulsina Fayazovna – Yashnobod tumanidagi “Diplomat international school” nodavlat ta’lim muassasasining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Imamov Erkin Zunnunovich – Toshkent axborot texnologiyalari universitetining fizika kafedrasi professori

Kan Lyudmila Nikolayevna – Yashnobod tumanidagi 10-bolalar musiqa va san’at maktabining fortepiano sinfi o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Kandregula Ganga Bhavani Santosh Kumari – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bo‘yicha ekspertlar kengashi a’zosi

Mattias Klingenberg – Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning “O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash” loyihasi rahbari

Muratkin Valeriy Nikolayevich – Bektemir tumanidagi 1-sport maktabining yo‘riqchi-uslubchisi, Toshkent shahri

Razova Batpa Pazilovna – Bo‘stonliq tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Sattorov Bobonazar Nuftillayevich – Kasbi tumani 1-texnikumi direktori, Qashqadaryo viloyati

Fu Zengzheng – O‘zbekiston – Xitoy kasbiy ta’lim alyansi bosh kotibining o‘rinbosari

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Abdurafikova Dildora Abduvaxidovna – Ohangaron shahridagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 7-maktab logopedi, Toshkent viloyati

Abduraxmonova Nigora Xudoyberdiyevna – Abu Ali ibn Sino nomidagi Termiz jamoat salomatligi texnikumi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, Surxondaryo viloyati

Mamarasulov To‘lqinjon Mirzayevich – Qarshi davlat universitetining tibbiyot fakulteti kafedra mudiri, Qashqadaryo viloyati

Turdiboyev Abdug‘ani Abdug‘apporovich – Farg‘ona shahridagi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun “G‘amxo‘rlik” markazi direktori, Farg‘ona viloyati

“Mardlik” ordeni bilan

Allambergenova Nigora Gulmurzayevna – Qonliko‘l tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Musayev Mirzaxmat Baymatovich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Ot sporti bo‘yicha respublika oliy sport mahorati maktabi murabbiysi

Kushmurotov Elmurot Jurakulovich – “University of innovation technologies” nodavlat ta’lim muassasasi ta’sischisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Safarov Suhrobjon Yangiboy o‘g‘li – Jarqo‘rg‘on tumani sport maktabi direktori, Surxondaryo viloyati

Yunusov Axmadali Xaydaraliyevich – Uchko‘prik tumani 2-texnikumining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Aliyeva Nargiza Ziyodillayevna – Navoiy pedagogika texnikumining pedagogika psixologiyasi fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Boboyev Po‘lat Jumaboyevich – Hazorasp tumanidagi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Gadoyev Azizbek Ilxomovich – Guliston shahridagi “Bolajonlar xonadonim quvonchi” oilaviy bolalar uyi rahbari, Sirdaryo viloyati

Yevstafyeva Oksana Shukurovna – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 190-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Mukumova Shaxnoza Buranovna – Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabining musiqa nazariyasi va fortepiano bo‘limi o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Pardayeva Gavhar Doniyorovna – Samarqand shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Umirzakov Alisher Abdikasimovich – Ohangaron tumanidagi “Ilg‘or kichkintoylar” oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari, Toshkent viloyati

Xalmatov Komil Turniyazovich – Respublika velosport mahorat maktab-internati direktori

Ergasheva Firyuza Davlatovna – Kogon shahridagi “Anisaoy” oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Buxoro viloyati

“Jasorat” medali bilan

Yembergenova Gulnara Joldasbayevna – Nukus shahridagi “Baxtli oila” oilaviy bolalar uyi rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Ziyotov Farrux Saodilla o‘g‘li – Qarshi shahridagi “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan 18-maktab-internatining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Karshiyeva Gulnoza Turakulovna – Tomdi tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Ro‘zmetova Laylo Xudoyorovna – Nurobod tumanidagi 78-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Mamatova Nazokat Sharipbayevna – Urganch shahridagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 32-maktab-internati direktori, Xorazm viloyati

Mo‘minov Fazliddin Xusniddin o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Yig‘ma-axborot va hududiy masalalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

Rasulov Sodiq Sa’dullayevich – Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi direktorining o‘rinbosari

Tolipov Shoxjaxon Ulug‘bek o‘g‘li – Buvayda tumanidagi “Vint” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg‘ona viloyati

Xamdamov Nodir Muxamatovich – Kogon shahridagi “Akbarjon barakat” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Abdubekova Madina Rovshan qizi – Yunusobod tumanidagi 1-bolalar musiqa va san’at maktabining vokal sinfi o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Atoyev Abubakir Izzatillo o‘g‘li – Buxoro davlat texnika universitetining elektr va energetika muhandisligi kafedrasi o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Sangirov Jumaniyoz Alijon o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining Yosh olimlar kengashi raisi o‘rinbosari

Xasanov Azizbek Erkin o‘g‘li – Navoiy shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Shukurullayeva Mohinur Baxrom qizi – Taxiatosh tumanidagi 6-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Yuldashev Farrux Xudayarovich – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining raqamlashtirish va axborot texnologiyalari guruhi rahbari

“Shuhrat” medali bilan

Abdiyeva Turdigul Abdujabbarovna – Samarqand shahridagi 80-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Avlakulov Davron Olimovich – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning informatika fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Alibayeva Barno Musurmonovna – Do‘stlik tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Alimova Saodatxon Toyirovna – Quva tumanidagi 66-umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Axmatova Karomat Abdulazizovna – Yunusobod tumanidagi 259-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Axmetova Shaxnoza Tolkunovna – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 210-umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

G‘iyosov Xasan Mamirovich – Sharof Rashidov tumani ixtisoslashtirilgan maktabining informatika fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Ismoilova Odinaxon Abdukaxxarovna – Izboskan tumanidagi 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabining iqtisod fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Yo‘ldosheva Nasiba Maxsud qizi – Gurlan tumanidagi “Yo‘ldosheva Nasiba” oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Xorazm viloyati

Kamalov Ne’matjon Bahodirovich – Bog‘ot tumani ixtisoslashtirilgan maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Kattayeva Shahnoza Shodiyevna – Navoiy shahridagi 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Kurbanova Iroda Djalalovna – Qo‘qon shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Qulmanova Nodira Eshdavlat qizi – Jarqo‘rg‘on tumani ixtisoslashtirilgan maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Mengliyeva Xursand Rajabovna – Nishon tumanidagi 35-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Mirxamitova Dilorom Xudayberdiyevna – Olmaliq davlat texnika institutining metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar fakulteti dekani, Toshkent viloyati

Murodova Marziya Majitovna – Vobkent tumanidagi 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Pardayeva Yulduz Ibragimovna – Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Sadinov Abror Samadovich – Paxtachi tumani 1-texnikumi direktori, Samarqand viloyati

Sadullayeva Nigora Ruslanovna – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi Ko‘p funksional inklyuziv-resurs markazi direktorining o‘rinbosari

Sangirova Zamira Bozorboyevna – Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining pedagogik mahorat va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

Sobitov Axmadjon Marxamatovich – Mirobod tumanidagi “Novda Edutainment” yangi avlod darsliklarini tayyorlash jamiyati rahbari, Toshkent shahri

Sulaymonov Tal’at Xayotjonovich – Yangiobod tumanidagi 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori, Jizzax viloyati

Temirova Adolat Avazxanovna – Yangiyo‘l agrotexnologiyalar texnikumining ishlab chiqarish ta’limi ustasi, Toshkent viloyati

Tohirov Doniyor Baxtiyor o‘g‘li – Chust tumani ixtisoslashtirilgan maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Umarova Muazzam Ergashevna – Shahrisabz tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Umarova Saidaxon Pulatovna – Yangiqo‘rg‘on tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Urunov Anvar Jamoliddinovich – Namangan shahridagi “LSL school” xususiy maktabi direktori, Namangan viloyati

Xolxodjayev Boxodir Asatullayevich – Toshkent davlat texnika universitetining oliy matematika kafedrasi dotsenti

Xudoyberdiyev Dilshod Anorboy o‘g‘li – Toshkent shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o‘qituvchisi

Choriyeva Nilufar Shaydullayevna – Muzrabot tumanidagi 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2026-yil 29-sentyabr

NAVBATDAGI MAQSAD — YANGI O‘ZBEKISTONNI JAHON SHAXMAT MARKAZIGA AYLANTIRISH

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

– Bu natijalar tasodifiy emas. Bu – maktab, bu – tizim, bu – o‘zbek shaxmatining yangi darajasi, – dedi Prezidentimiz.

2018-yilda qabul qilingan qaror asosida maktablarda shaxmat o‘qitish, murabbiylar tayyorlash va klublarni rivojlantirish yo‘lga qo‘yildi. So‘nggi o‘n yilda 17 nafar shaxmatchimiz xalqaro grossmeyster unvoniga ega bo‘ldi, ularning besh nafari ayollardir.

Davlatimiz rahbari navbatdagi maqsadni belgilab berdi: Yangi O‘zbekistonni nafaqat Olimpiada chempioni, balki dunyo shaxmat markaziga aylantirish. Buning uchun mamlakatimizda tajriba, natija va yoshlarga namuna bo‘ladigan chempionlar borligi ta’kidlandi. Ulardan ilhomlangan minglab bolalarning shaxmatga kirib kelishi yangi iste’dodlarni kashf etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu maqsadda har bir viloyat, tuman va mahallada iqtidorli bolalarni erta aniqlash, ularni kuchli ustozlarga biriktirish va xalqaro turnirlarda muntazam qatnashishiga sharoit yaratish vazifasi qo‘yildi. Qizlar shaxmati va parashaxmatni rivojlantirish bo‘yicha alohida tizim tashkil etiladi.

Toshkent xalqaro shaxmat akademiyasining Samarqand, Xorazm va Farg‘onada mintaqaviy filiallari ochiladi. Akademiyada oliy toifali murabbiylar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. FIDE reytingida 1 ming 500 dan yuqori ball to‘plagan shaxmatchilarning xususiy klublarda o‘qish xarajatlarining yarmi davlat tomonidan qoplanadi.

Shuningdek, “O‘zbekiston Grand chess” milliy brendi ostida xalqaro turnirlar muntazam o‘tkazib boriladi. Prezidentimiz Yangi Toshkentda 500 kishilik o‘yin zali, yotoqxona va sport maydonchalariga ega zamonaviy shaxmat saroyini barpo etishni taklif qildi.

Uchrashuvda shaxmat va parashaxmat olimpiadalari g‘olib va sovrindorlarini, ularning murabbiylarini rag‘batlantirish to‘g‘risida qaror qabul qilingani ma’lum qilindi. Unga muvofiq, chempionlarga uy-joy hamda avtomobil berildi. Bronza medalini qo‘lga kiritgan parashaxmatchilar ham uy-joy va avtomobil bilan taqdirlandi. Terma jamoalar bosh murabbiylari Rustam Qosimjonov va Samandar Shermuxammadov avtomobil bilan mukofotlandi.

Olimpiada chempioni bo‘lgan har bir shaxmatchiga 200 ming dollardan, ularning murabbiylariga 50 ming dollardan pul mukofoti ajratildi. Bronza medalini qo‘lga kiritgan har bir parashaxmatchiga 50 ming dollardan, ularning murabbiylariga 12 ming 500 dollardan berildi.

Prezident farmoniga muvofiq, Vatanimiz shuhratini yuksaltirishga qo‘shgan hissasi, mahorati va jasorati uchun bir guruh shaxmatchilar, ularning ustozlari va soha vakillari davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi. Uchrashuvda mazkur mukofotlarni topshirish marosimi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari mukofotlar sportchilarning bugungi g‘alabasiga berilgan baho ekani bilan birga ularning kelgusi yutuqlariga bildirilgan ishonch ramzi ekanini ta’kidladi.

Sportchilar, ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylari so‘zga chiqib, davlatimiz rahbariga shaxmat sohasiga qaratilayotgan e’tibor va yaratilgan keng sharoitlar, yuksak e’tirof uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuv yakunida Prezidentimiz terma jamoalar a’zolari va ularning ota-onalari bilan birgalikda suratga tushdi.

O‘zA.

Berlindagi “Q Gallery Berlin” galereyasida O‘zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan “O‘zgarishlar nafasi: o‘zbek – german madaniy almashinuvi” nomli ko‘rgazma ochildi.



O‘ZARO HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISHDA MUHIM VOSITA

1

Bundan tashqari, uyushgan mehnat migratsiyasi bo‘yicha hamkorlik, fuqarolarni qonuniy asoslarda ish bilan ta’minlash, ularning mehnat, tibbiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlash masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida madaniy-gumanitar aloqalarni yanada kengaytirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va turizm yo‘nalishlarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish muhimligi e’tirof qilindi. Xususan, madaniyat kunlari, rektorlar va tibbiyot forumlari hamda yoshlar ishtirokida qo‘shma loyihalarni izchil davom ettirish va o‘quvchilar o‘rtasida aloqalarni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish lozimligi qayd etildi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va parlament diplomatiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, O‘zbekiston – Belarus xotin-qizlari biznes forumlari doirasida erishilgan kelishuvlarni amaliy loyihalarga aylantirish muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida parlamentlararo, hududlararo aloqalarni rivojlantirish, ishbilarmonlarni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro parlament platformalari doirasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishga kelishib olindi.

DEPUTATLIK DIPLOMATIYASIDAN SAMARALI FOYDALANILADI

O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, mahalliy vakillik organlari bilan aloqalarni mustahkamlash hamda o‘zaro manfaatli tashabbuslarni ilgari surish masalalari ikki davlat uchun birdek manfaatli.

Muhokama

Kecha Xiva shahrida “Strategik sheriklik: parlamentlararo muloqotni rivojlantirish, hamkorlikning yangi vazifalari va istiqbollari” mavzuida to‘rtinchi O‘zbekiston – Belarus parlamentlararo forumi doirasida bo‘lib o‘tgan mahalliy vakillik organlari rahbarlarining uchrashuvida ayni masalalar qizg‘in muhokama qilindi.

Suhbat chog‘ida qayd etilganidek, mahalliy darajada hamkorlikni izchil rivojlantirish, O‘zbekiston va Belarus strategik sherikligini yanada mustahkamlash ikki xalq o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirda mahalliy vakillik organlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o‘rni, aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, fuqarolar ishtirokini kuchaytirish hamda jamoatchilik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik va investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish, yangi iqtisodiy sheriklik yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha fikr almashildi.

Deputatlik diplomatiyasining imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mahalliy vakillik organlari o‘rtasida muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro tashriflar va ishchi uchrashuvlarni kengaytirish ishtirokchilar e’tiboridan chetda qolmadi.

Muloqot yakunida O‘zbekiston va Belarus mahalliy vakillik organlari o‘rtasida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ikki tomonlama 15 ta kelishuv imzolandi. Mazkur hujjatlar hududlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni rivojlantirish, tajriba almashish va amaliy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

“Xalq so‘zi”.

PARLAMENTLARARO ALOQALARDAN AMALIY SHERIKLIK SARI

Shunday shaharlar borki, ular nafaqat o‘tmishdan so‘zlaydi, balki zamonaviy muloqotlarga ham o‘ziga xos ruh bag‘ishlaydi. Asrlar davomida Sharq va G‘arbni bog‘lagan, ilm-fan, madaniyat va savdo yo‘llari kesishgan qadimiy Xiva shahri yana bir muhim xalqaro uchrashuvga mezbonlik qilmoqda.

Forum



Kecha bu yerda “Strategik sheriklik: parlamentlararo muloqotni rivojlantirish, yangi vazifalar va hamkorlik istiqbollari” mavzuida to‘rtinchi O‘zbekiston – Belarus parlamentlararo forumi o‘z ishini boshladi.

Forumning ahamiyati uning ishtirokchilari geografiyasi va muhokama qilinayotgan masalalar ko‘lamida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Unda ikki davlat parlamentlari palatalari rahbarlari va a’zolari, hukumat, vazirlik hamda idoralar, mahalliy vakillik organlari, oliy ta’lim muassasalari, yoshlar parlamentlari va biznes vakillari ishtirok etayotgani zamonaviy parlamentlararo muloqot faqat rasmiy uchrashuvlar yoki fikr almashish bilangina cheklanib qolmayotganidan dalolat beradi.

Tadbir doirasida mahalliy vakillik organlari o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, hududlararo to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni kuchaytirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilyapti.

Bu bejiz emas. Chunki bugungi kunda xalqaro hamkorlikning samaradorligi ko‘p jihatdan uning hududlarda qanday natija berayotgani bilan o‘lchanadi. Yangi korxona va ish o‘rni, yangi ta’lim loyihasi, qo‘shma investitsiya yoki turistik marshrut – sheriklikning hayotdagi aniq ifodasi. Xivadagi forum ana shu maqsadga xizmat qiladigan muloqotlar uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Ayniqsa, O‘zbekiston va Belarus tadbirkor ayollarining to‘rtinchi biznes forumi doirasidagi muhokamalar hamkorlikning iqtisodiy mazmunini yanada boyitmoqda. Unda sanoat kooperatsiyasi, qo‘shma investitsiyalar, mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, agrosanoat majmuasi, oziq-ovqat xavfsizligi, biotexnologiyalar, gumanitar sohalar va turizm kabi yo‘nalishlar qamrab olindi.

Biznes-forumning sanoat kooperatsiyasi va qo‘shma investitsiyalarga bag‘ishlangan shu’ba yig‘ilishida ikki mamlakat o‘rtasida ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirish, mahalliylashtirish va qo‘shma korxonalar tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Bunday yondashuv shunisi bilan muhimki, endi hamkorlik faqat tayyor mahsulotlar ayirboshlash bilan cheklanmay, ishlab chiqarish zanjirlarini birgalikda shakllantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga qaratiladi.

Muhokamada barqaror kooperatsiya zanjirlarini shakllantirish, korxonalarning yangi bozorlarga chiqishi, investitsiyaviy loyihalarni ko‘paytirish masalalari e’tiborga olindi.

Ayni jarayonda xotin-qizlarning tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi ham alohida o‘rin tutdi. Ish o‘rinlari yaratish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ayollarning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy hamkorlikning ijtimoiy ahamiyatini ham belgilab bermoqda.

Bugun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, O‘zbekiston – Belarus hamkorligining agrosanoat yo‘nalishi ham keng imkoniyatlarga ega.

Forumda qishloq xo‘jaligi texnikalarini O‘zbekistonda mahalliylashtirish, qo‘shma korxonalar tashkil etish, chorvachilikda zamonaviy oziqlantirish usullaridan foydalanish, genetika va veterinariya sohalarida texnologiyalar almashinuvini kengaytirish bo‘yicha takliflar bildirildi. Bundan tashqari, o‘simliklarni himoya qilishning biologik usullari, seleksiya va urug‘chilik, agrobiotexnologiyalar, raqamli yechimlar hamda qo‘shma ilmiy tadqiqotlar ham istiqbolli yo‘nalishlar sifatida qayd etildi. Bu boradagi yondashuvning mazmuni oddiy: agrosanoat hamkorligi faqat mahsulot savdosi emas, balki texnologiya, ilm-fan, investitsiya va qo‘shma ishlab chiqarishni qamrab olgan uzviy tizimga aylanishi kerak.

Har qanday strategik sheriklikning poydevori, avvalo, inson kapitali bilan bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, forum doirasida tashkil qilingan ta’lim, fan va tibbiyot masalalariga bag‘ishlangan muhokamalar alohida ahamiyat kasb etdi.

“O‘zbekiston va Belarusning gumanitar va ijtimoiy sohalardagi strategik sherikligi: imkoniyatlar va istiqbollar” mavzuidagi shu’ba yig‘ilishida oliy hamda professional ta’lim, ilmiy tadqiqot, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika va innovatsiya sohalaridagi hamkorlikning bugungi holati hamda istiqbollari muhokama qilindi.

Oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida aloqalarni kengaytirish, muhandislik yo‘nalishlarida qo‘shma kadrlar tayyorlash, professional ta’lim sohasida tajriba almashish kabi masalalar bugungi mehnat bozori talablari nuqtayi nazaridan g‘oyatda muhim.

Ilm-fan yo‘nalishida esa bioxilmaxillik, genetika va zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, tibbiyot sohasida ona va bola salomatligi, pediatriya, tibbiy xizmat sifati va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo‘yicha tajriba almashish masalalari muhokama markazida bo‘ldi.

Bundan ko‘rinadiki, parlamentlararo muloqotning muhim yo‘nalishlaridan biri – inson salomatligi, ta’lim sifati va ilm-fan taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratish.

Ayonki, Xiva O‘zbekistonning ulkan madaniy-tarixiy va sayyohlik salohiyatini namoyon etadi.

“Turistik muloqot: salohiyatdan aniq qo‘shma loyihalar sari” mavzuidagi muhokamada ikki mamlakat o‘rtasida sayyohlik almashinuvini oshirish, yangi turistik mahsulotlar va qo‘shma marshrutlar yaratish, xizmatlar sifatini yaxshilash masalalariga e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonning madaniy-tarixiy, ekologik, etnik, gastronomik, ta’lim va ziyorat turizmidagi imkoniyatlari Belarus tomonining ekoturizm, turistik qishloqlar, ta’lim turizmi va soha uchun kadrlar tayyorlash borasidagi tajribasi bilan uyg‘unlashishi mumkin.

Eng muhimi, muhokamalar aniq amaliy hamkorlikka – turoperatorlar, mehmonxonalar va xususiy sektor o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kuchaytirish, qo‘shma turistik loyihalarni shakllantirishga qaratildi.

Anjuman doirasida tashkil etilgan “Made in Uzbekistan” va “Made in Belarus” brendlari ostidagi ekspozitsiyada ikki mamlakatning vazirlik va idoralari, tarmoq birlashmalari, korxonalari hamda tadbirkor ayollari tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha va tashabbuslar taqdim etildi.

Ko‘rgazmada to‘qimachilik, ipakchilik, charm-poyabzal, yog‘ochni qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari bilan bir qatorda, IT-ishlanmalar, innovatsion yechimlar, tibbiyot hamda kosmetika mahsulotlari, turizm salohiyati va mashinasozlik sanoati namunalari namoyish qilindi. Unda O‘zbekiston va Belarusdan yuzdan ortiq korxonalar ishtirok etdi.

Ko‘rgazma oddiy mahsulotlar namoyishi emas. U tadbirkorlar uchun yangi hamkor topish, bozorlarni o‘rganish, texnologiya va tajriba almashish, qo‘shma loyihalar uchun muloqot boshlash imkonini beruvchi amaliy maydon.

Ikki kun davom etadigan forum yakunida Xiva deklaratsiyasini qabul qilish, tijorat shartnomalari, hamkorlik to‘g‘risidagi bitim va memorandumlarni imzolash rejalashtirilgan. Bu hujjatlar forumda bildirilgan fikr va tashabbuslarni aniq kelishuvlarga aylantirish nuqtayi nazaridan muhim. Chunki parlamentlararo muloqotning haqiqiy samarasi amaliy natijalarda namoyon bo‘ladi. Qonun ijodkorligidagi tajriba almashinuvi, hududlar o‘rtasidagi hamkorlik, investitsiya, sanoat kooperatsiyasi, ta’lim va ilm-fan, tibbiyot, turizm va agrosanoat sohalaridagi yangi loyihalar – bularning barchasi ikki mamlakat munosabatlarining mazmunini yanada boyitishi mumkin.

Bugun Xiva tarixni so‘zlayotgan shahar sifatida emas, balki kelajakka qaratilgan muloqotlar maydoni o‘laroq o‘z so‘zini aytmoqda.

“Xalq so‘zi”.

ASARLARI EZGULIKKA UNDAYDIGAN BETAKROR ADIB

Poytaxtimizdagi O‘zbekiston davlat drama teatrida o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, atoqli adib, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi O‘tkir Hoshimov tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-ma’rifiy xotira kechasi bo‘lib o‘tdi.

Xotira kechasi

Tadbirda e’tirof etilganidek, mamlakatimizda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning yuksak e’tibori va g‘amxo‘rligi bilan adabiyot va san’at sohalarida mehnat qilayotgan ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, xususan, ulug‘ ijodkorlarimiz xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu fayzli anjuman ham ana shunday e’tiborning amaliy namunalaridan biri bo‘ldi.

So‘zga chiqqanlar O‘tkir Hoshimov asarlarida milliy ruh va insoniylik ustuvor o‘rin egallashi, ayni damda ezgulik, odamiylik, mehr-muruvvat adibning o‘ziga xos insoniy fazilatlari ekanini alohida ta’kidlashdi. Shuningdek, adib ijodining milliy adabiyotimizdagi o‘ziga xos o‘rni, badiiy tafakkuri hamda inson qalbi va undagi turfa kechinmalarni yuksak mahorat bilan tasvirlash salohiyati xususida batafsil so‘z yuritildi.

– O‘tkir Hoshimov o‘z kitoblari – qissalari, hikoyalari va romanlari bilan xalqimizning qalbidan chuqur o‘rin olgan ijodkor, – dedi filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Bahodir Karim. – Xususan, yozuvchining “Dunyoning ishlari” asarini o‘qigan kitobxon oiladagi parokandalik juda ulkan bir sinov ekanini teran anglaydi. Asar juda samimiy, go‘zal yozilgan, bu qaysidir ma’noda avtobiografik xarakterga ega. Qolaversa, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” kabi asarlari ham qayta-qayta o‘qiladigan kitoblar sirasiga kiradi.

Samimiy va yorqin ruhda o‘tgan adabiy-ma’rifiy anjumanda O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ijodining o‘ziga xos va betakror jihatlari, uning xalqimiz ma’naviyatini rivojlantirish yo‘lidagi zahmatli xizmatlari, fidokorona mehnatlari hayotiy misollar asosida yodga olindi.

Xotira kechasining eng muhim va ta’sirchan qismlaridan biri – O‘tkir Hoshimov ishtirokidagi arxiv videolavhalarining namoyishi bo‘ldi. Unda adibning turli yillardagi suhbatlari, adabiyot, ijod, inson va umr haqidagi qimmatli fikrlari aks ettirilgan lavhalar adabiyot muxlislariga taqdim qilindi. Adib asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllar, yozuvchi hayotiga oid videolavhalar namoyish etildi, milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan kuy-qo‘shiqlar ijro qilindi.

Adabiy-ma’rifiy kechada O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov ishtirok etdi.

“Xalq so‘zi”.

“HAR BIR YURISH BIZGA VATANIMIZ OLDIDAGI ISHONCHNI OQLASHGA BERILGAN IMKON EKANINI HIS QILIB TURDIK”

O‘zbekiston – ikki karra Butunjahon shaxmat olimpiadasi chempioni! Mamlakatimizning fidoyi, o‘ziga ishongan va iqtidorli o‘g‘il-qizlari matonati hamda ulkan mehnatlari evaziga qo‘lga kiritilgan ushbu yuksak g‘alabalar hali yillar osha qanchadan-qancha avlodlarga iftixor bag‘ishlashi va yangi marralar sari ruhlantirishi turgan gap.

Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida dunyoning 205 davlatidan 397 ta jamoa ishtirok etgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi haqiqatda hayajonli lahzalarga boy bo‘ldi. Binobarin, barchamiz O‘zbekiston jamoalarining o‘yinlari va bir-biridan ajoyib g‘alabalarini qalbda o‘zgacha surur bilan kuzatib bordik.

Dil so‘zi

Quvonarlisi, asosiy erkaklar terma jamoamiz Hindiston, Xitoy, AQSh va Ukraina kabi dunyoning eng kuchli jamoalarini mag‘lub etib, haqli ravishda chempionlikni qo‘lga kiritdi. Yigitlarimiz 11 ta turdan 10 tasida g‘alaba qozonib, 20 ochko bilan g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarildi.

Samarqandga tashrif buyurgan 60 mingdan ortiq mehmonlar va hududlardagi “fan zona”larda yarim millionga yaqin muxlislar guvohligida o‘tgan ushbu musobaqa yurtimiz yoshlarining ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qildi, desak, ayni haqiqat.

Asosiysi, yurtimizda boshlangan ushbu shodiyona shukuhi hali davom etayotir. Davlatimiz rahbarining farmoniga binoan yosh shaxmatchilarimiz va ularning murabbiylari yuksak mukofotlar bilan taqdirlangani hamda Ko‘ksaroy qarorgohida uchrashib fikrlar bildirgani quvonchlarga-quvonch qo‘shdi.

Turnirda yurtimiz sharafini munosib himoya qilgan shaxmatchi yoshlarimizning fikrlari va dil izhorlarini yozib oldik.

**Nodirbek ABDUSATTOROV,
46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi:**



– Musobaqaga tayyorgarlik jarayonlaridayoq 2022-yil Chennayda qo‘lga kiritilgan chempionlik tasodif emasligini, O‘zbekistonda shaxmat sport turini rivojlantirishga katta e’tibor va imkoniyatlar berilayotganini o‘z yurtimizda muxlislar qarshisida isbotlashimiz kerakligini dildan his qilib turardik. Ha, o‘z Vatanimizda, Samarqand zaminida dona surish butunlay boshqacha mas’uliyat yuklardi kishiga.

Ochig‘i, so‘nggi partiya tugab, g‘alaba naqd bo‘lganida, eng avvalo, zimmamizdagi ulkan mas’uliyat yuki biroz bo‘lsa-da yengillaganini his qildim. Axir, bu musobaqa shunchaki 64 xonali taxtadagi taktika emas, balki yurt sha’ni, o‘zbek shaxmat maktabining qudratini ko‘rsatuvchi bahs edi.


O‘z tajribamdan kelib chiqib ayta olamanki, shaxmatda eng asosiy raqib qarshingizda turgan odam emas, sizning ichingizdagi qo‘rquv va hayajondir. Shu bois pozitsiya qanchalik murakkablashmasin, soat millari nechog‘li shoshirmasin, o‘zni xotirjam tutish va idrokni oxirigacha qiynash darkor.

Murabbiylarimiz, xususan, Rustam Qosimjonov bilan olib borgan tahlillar va taktik tayyorgarligimiz menga katta ishonch bag‘ishladi. Qolaversa, jamoadoshlarim Nodirbek Yoqubboyev, Javohir, Muhiddin va Shamsiddinning ruhiyati menga ikki hissa kuch berdi.

Asosiysi, davlatimizda shaxmatga katta e’tibor qaratilmoqda va biz eng yuqori natijalarga erisha olyapmiz. Shaxmat akademiyalarining ochilishi, yoshlar o‘rtasidagi musobaqalarning muntazam o‘tkazilishi va xalqaro grossmeysterlarning jalb etilishi o‘z mevasini bermoqda.

Bugun O‘zbekistonda shaxmat ommaviy harakatga aylandi. Har bir mahallayu maktabda bolalarning shaxmatga bo‘lgan qiziqishini ko‘rib ko‘ngil o‘sadi. Bizning ushbu olimpiadadagi g‘alabamiz minglab yoshlar qalbida “Men ham uddalay olaman!” degan ishonch uchqunini yoqqan bo‘lsa, o‘zimizni baxtiyor deb bilamiz.

**Javohir SINDAROV,
46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibi, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi:**



– Shaxmat taxtasi oldida soatlab o‘tirib, minglab variantlarni xayoldan kechirayotgan vaqtingiz ortingizda Vatan va sizga ishonch bildirgan xalq turganini anglashning o‘zi ham insonga katta kuch beradi.

Bu galgi Butunjahon shaxmat olimpiadasi hayotimizdagi eng unutilmas va sharafli sinovlardan biri bo‘ldi, desam, adashmayman. Chunki musobaqa davomida dunyoning eng kuchli shaxmat mamlakatlari bo‘lgan AQSh, Hindiston, Xitoy va Germaniya kabi terma jamoalarga qarshi murosasiz bahslar olib bordik. Har bir tur, har bir doskadagi kurash mahorat bilan birga, temirdek iroda va so‘nmas shijoatni ham talab etardi. Shu bois biz alohida beshta o‘yinchi emas, balki yagona vujud, jipslashgan jamoa sifatida harakat qildik.

Bahslar davomida ba’zi partiyalarda pozitsiyaviy murakkabliklar va vaqt tangligi yuzaga keldi, darhol dadillik bilan olg‘a intildim va buning natijasini o‘zingiz ham yaxshi bilasiz.

Ochig‘i, doimo taxta qarshisiga chiqqanimda hujumkor va tashabbuskor o‘yin ko‘rsatishga urinaman. Chunki shaxmatda tashabbusni o‘z qo‘lida ushlab turgan o‘yinchi raqibni xato qilishga majburlay oladi.

Bugun yurtimizda shaxmatga bo‘lgan qiziqish va e’tibor juda yuqori darajada. Maktablarda, mahallalarda minglab yosh o‘g‘il-qizlar shaxmat taxtasi atrofida jamlanmoqda. Ishonamizki, kelajakda ularning orasidan hali ko‘plab chempionlar yetishib chiqadi.

Prezidentimiz mukofotlar bilan taqdirlaganida hamda ushbu yuksak mukofotni shaxsan Yurtboshimiz qo‘lidan qabul qilib olgan paytimiz qalbimizni faxru hayajon, qolaversa, katta mas’uliyat hissi egalladi.

Ushbu yuksak mukofotni faqat o‘zimga emas, balki kechalari mijja qoqmay har bir o‘yinni tahlil qilgan jamoadoshlarim va murabbiylarimiz mehnatiga ham berilgan yuksak baho, deb bilaman.

**Nodirbek YOQUBBOYEV,
46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi:**



– O‘ziga ishonch bilan bahslarga kirgan jamoamiz 11 turnirning 10 tasida g‘oliblikka ega chiqib, yurtimiz nomini yana dunyoga taratdi. Buning ortida qancha zahmat, ustozlardan olingan saboqlaru uyqusiz tunlar borligini sezish qiyin emas, albatta.

Tan olaman, musobaqada so‘nggi turning oxirgi soniyalarigacha asablar dosh bermaydigan darajada kuchli ruhiy bosim bor edi. To g‘alaba naqd bo‘lib, O‘zbekiston birinchilik shohsupasiga chiqquniga qadar qalbimiz hayajonda edi. Asosiysi, o‘yinlar davomidagi har bir yurish Vatanimiz oldidagi ishonchni oqlashga berilgan imkon ekanini teran his qilib turdik.

Davlatimiz rahbarining bizga yo‘llagan tabrigi esa, eng avvalo, cheksiz g‘urur va iftixor tuyg‘usini bag‘ishladi. Undagi har bir so‘z, bildirilgan yuksak ishonch yurak-yuragimizgacha yetib bordi. Yurtboshimizning biz kabi sportchilarga otalarcha g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi, xususan, shaxmatchilarimiz mehnatini yuqori baholashi bizga zimmamizdagi mas’uliyat naqadar kattaligini yana bir bor eslatdi.

Shaxmat shunchaki taxtadagi donalarni surish emas, balki xarakter va intizom sinovi, desam, adashmayman. Ya’ni odamda iqtidor bo‘lishi mumkin, lekin agar doimiy mehnat va intizom bo‘lmasa, u hech narsaga arzimay qolishi turgan gap. Shuningdek, bu o‘yinda mag‘lubiyatsiz yo‘l bo‘lmaydi. Hatto eng buyuk shaxmatchilar ham yengiladi, muhimi, mag‘lubiyatdan so‘ng tushkunlikka tushmay, xatolarni tahlil qilib, taxta qarshisiga yanada kuchliroq bo‘lib qayta olishdir. O‘zim ham bolaligimda ko‘p mag‘lub bo‘lganman, biroq har bir xato o‘yinni qayta tahlildan o‘tkazish va yanada kuchliroq bo‘lib qaytishga undagan. Mana, bugun shularning natijasi o‘laroq kumush medalga sazovor bo‘ldim.

Samarqand zaminidagi g‘alabamiz so‘nggi marra emas, balki yangi marralarning debochasi hisoblanadi. Bizning bosh maqsadimiz – klassik shaxmat bo‘yicha jahon chempioni unvonini O‘zbekistonga olib kelish! Buning uchun hali juda ko‘p ishlashimiz, reytingimizni oshirishimiz hamda nomzodlar turnirida g‘olib bo‘lishimiz lozimligini ham yaxshi anglayman.

**Rahmatjon BOBOJONOV
(“Xalq so‘zi”) yozib oldi.**

Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, 2026-yil 1-oktyabrdan respublikada tozalik va ozodalik dolzarb ikki oyligi o‘tkaziladi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 30-avgust

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON MANFAATLARI, SHA’NI, QADR-QIMMATINING MUSTAHKAM KAFOLATI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini rivojlantirish, migratsiya bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, narkotiklar va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish, voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari himoyasini yanada kuchaytirish, bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish tizimini mukammallashtirishga qaratilgan qator qonun loyihalari ko‘rib chiqildi.

Kun tartibidagi ushbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas’ul qo‘mitalar, ishchi guruh yig‘ilishlarida ekspertlar, tegishli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari ishtirokida atroflicha muhokama qilingani qayd etildi.

Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

U Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli sud himoyasini kuchaytirish, Konstitutsiyaviy sud qarorlarining sud amaliyotida samarali ijrosini ta’minlash hamda konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishga doir protsessual tartiblarni aniq belgilashga qaratilgan normalarni o‘z ichiga olgan.

Unda fuqarolar va yuridik shaxslarning shikoyat bilan murojaat etish huquqini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha huquqiy kafolatlar yaratilmoqda. Xususan, sud orqali himoyalanishning barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan va sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi yuzasidan shikoyat qilish mexanizmi aniqlashtirilmoqda.

Deputatlar qayd etganidek, mazkur normalar konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolar va yuridik shaxslarning sud himoyasiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Narkotik moddalar muomalasi ustidan nazorat kuchaytiriladi

Deputatlar “Narkotiklar va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ikkinchi o‘qishda muhokama etdi.

Ushbu hujjat narkotiklar va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish, giyohvandlik va narkojinoyatlarning oldini olish, aholi salomatligini muhofaza etish hamda sohada davlat organlarining o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirishga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan narkotiklar, kuchli ta’sir qiluvchi moddalar va prekursorlar muomalasini, shuningdek, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasini kompleks tartibga solish nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, “narkotiklar”, “narkojinoyat”, “narkovaziyat”, “giyohvandlikka qarshi kurashish”, “narkojinoyatlarga qarshi kurashish” kabi tushunchalarga huquqiy ta’riflar berilmoqda.

Loyihada narkotiklar, kuchli ta’sir etuvchi moddalar va prekursorlar muomalasini nazorat qilish hamda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishida davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlari aniqlashtirilmoqda. Jumladan, sohadagi davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasining Narkotiklar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilanyapti.

Hujjat bilan narkojinoyatlarning yangi, ayniqsa, internet tarmog‘idagi usullariga qarshi kurashish, noqonuniy narkolaboratoriyalarni aniqlash va ularning faoliyatiga chek qo‘yish, narkotiklarning noqonuniy muomalasi kanallarini bartaraf etish bo‘yicha tezkor-qidiruv va boshqa choralarni amalga oshirish yuzasidan mas’ul davlat organlari va tashkilotlariga aniq vazifalar ham belgilanmoqda.

Narkotiklar va kuchli ta’sir etuvchi moddalar muomalasini nazorat qilish bilan bir qatorda, profilaktika yo‘nalishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, mas’ul davlat organlari va tashkilotlariga aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarda giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirishga, ta’lim muassasalarida narkotiklar tarqalishining oldini olishga, narkologik yordam, profilaktika, diagnostika, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim vazifalar yuklatilmoqda.

Bundan tashqari, narkojinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi qaratilgan yangi mexanizmlar nazarda tutilyapti. Xususan, narkojinoyatga yo‘l qo‘ygan yoki narkojinoyatlar natijasida olingan daromadlarni legallashtirish maqsadida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirgan yuridik shaxsni sud qaroriga asosan tugatish mumkinligi belgilanmoqda.

Dildora KAMOLOVA,
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:



– Qonun loyihasida narkojinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlardan foydalanishni rag‘batlantirish, sohadagi ilmiy, amaliy va texnologik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, narkojinoyatlar haqida xabar bergan yoki ularga qarshi kurashishga ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish va ularning shaxsiga doir ma’lumotlar sir saqlanishini kafolatlashga qaratilgan normalar ham o‘z ifodasini topmoqda. Mazkur hujjat bugungi kunda dolzarb bo‘lib, uni ishlab chiqishda milliy qonunchilik bilan bir qatorda, xorijiy davlatlarning sohaga oid tajribasi o‘rganilib, ulardagi maqbul mexanizmlar inobatga olinganini alohida ta’kidlash joiz.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Migratsiya bo‘yicha qonunchilik takomillashtirilmoqda

Majlisda “Migratsiya sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ushbu hujjat qonunlarni bir-biriga moslashtirish, migratsiya bo‘yicha qoidalarni zamon talablariga muvofiq ravishda tartibga solish va qonunlarni amalda qo‘llashda yagona tartibni ta’minlashga qaratilgan.

Loyihada fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni mehmonxonalar, motellar, turistik lagerlar, dam olish uylari va zonalari, sanatoriylar, davolash pansionatlari, davlat tasarrufidagi va xususiy klinikalar, shifoxonalarga kelganda ushbu tashkilot va muassasalarda turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan normalar kiritilmoqda.

Shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonun normalariga muvofiqlashtirildi. Xususan, fuqarolarni yashash joyi va turgan manzili bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq atama va tushunchalar qonun hujjatlarida birxillashtirildi. Amaldagi bir qator kodeks va qonunlardagi “doimiy yashash joyi” va “vaqtincha turgan joyi” kabi tushunchalar tegishincha “yashash joyi” va “turgan joyi” tushunchalariga muvofiqlashtirildi.

Majlisda qayd etilganidek, qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida deputatlar takliflari, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyoti atroflicha o‘rganilib, uning ayrim normalari yanada takomillashtirildi.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasining takomillashtirilgan normalari, ularning huquqni qo‘llash amaliyotiga ta’siri hamda belgilanayotgan huquqiy mexanizmlarning samarali ishlashi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etganlik uchun javobgarlik keskin kuchaytirilmoqda

“Adolat” SDP fraksiyasi tashabbusi asosida kiritilgan – bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Ushbu hujjat bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks hamda qator qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ko‘zda tutilgan.

Unda bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlik va jinsiy tajovuzlar uchun jazo choralarini kuchaytirish, jabrlangan bolalarni huquqiy jihatdan himoya qilish, zo‘ravonlik holatlarining oldini olish hamda mas’ul tashkilotlar va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirishga qaratilgan normalar aks etmoqda.

Eng avvalo, bolalarga nisbatan sodir qilingan o‘ta og‘ir jinsiy jinoyatlar uchun jazo keskin kuchaytirilmoqda. Xususan, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlari uchun uzoq muddatli yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosini tayinlash ko‘zda tutilmoqda.

Qonun loyihasida bolaning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarni sodir qilgan shaxslar javobgarlikka tortish muddati o‘tganligi sababli javobgarlikdan va jazoni ijro etish muddati o‘tganligi bois jazodan ozod qilinmasligi belgilanmoqda. Bu orqali bola hayotiga tajovuz sifatida baholanadigan og‘ir qilmishlar uchun jazo muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy kafolatlar kuchaytiriladi.

Bolalar himoyasi faqat jinoyat sodir etilganidan keyin jazo tayinlash bilan cheklanmaydi. Zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlangan bolaning huquqlarini ta’minlash va uning manfaatlarini tergov hamda sud jarayonlarida himoya qilish ham birdek muhimdir.

Shu maqsadda zo‘ravonlikdan jabrlangan voyaga yetmaganlarni so‘roq qilish jarayonini videoyozuv orqali qayd etish, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar bo‘yicha jabrlangan bola bilan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini yuzlashtirishni maxsus tartib asosida o‘tkazish taklif etilmoqda. Bolaga yaqin shaxslar tomonidan zo‘ravonlik sodir qilingan holatlarda esa jinoyat ishini sudga qadar yuritish va sud muhokamasi jarayonlarida vasiylik va homiylik organi vakilining ishtirokini ta’minlash nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki unga guvoh bo‘lgan bolalarga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish mexanizmi ham joriy etilmoqda. Bu bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularning moddiy sharoitidan qat’i nazar, malakali yuridik yordam olish imkoniyatini kengaytiradi.


Qonun loyihasi bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishda mas’uliyatsizlikka ham chek qo‘yishga qaratilgan. Jumladan, bolaga g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar qarorlarini ijro etmaganlik yoki ularning ijrosiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni belgilash taklif etilmoqda.

Voyaga yetmaganga nisbatan qasddan badanga og‘ir va o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish, bir guruh shaxslar tomonidan o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etilishini og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholash, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlik uchun jazo choralarini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Hujjatda bolalarning xavfsizligi uchun ota-ona va ta’lim muassasalari xodimlarining mas’uliyati ham alohida belgilanmoqda. Bolalarni tarbiyalash majburiyatini bajarmaslik, shahvoniy shilqimlik qilish va nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish kabi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy jazo choralarini kuchaytirish, ta’lim-tarbiya jarayonida pedagog tomonidan bolaga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilgan taqdirda esa mehnat shartnomasini ish beruvchi tashabbusiga ko‘ra bekor qilish uchun huquqiy asos yaratish taklif etilmoqda.

Shu bilan birga, bolalarni ularning sog‘ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash ham nazarda tutilgan.

Gulruh AGZAMOVA,
Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasi raisi, “Adolat” SDP fraksiyasi a’zosi:



– Bola uchun eng xavfsiz joy uning uyi, eng ishonchli insonlar esa ota-onasi va yaqinlari bo‘lishi kerak. Afsuski, hayotda har doim ham shunday emas. Ayrim bolalar aynan o‘z uyida yoki ta’lim olayotgan muassasada o‘zi ishongan insonlar tomonidan zo‘ravonlikka duch kelmoqda. Vaholanki, bolaning sukuti uning roziligini anglatmaydi. Uning o‘zini himoyalay olmasligi esa jamiyatning uni himoya qilish majburiyatini yanada oshiradi. Asosiysi, zo‘ravonlikka uchragan bola yordam so‘rash uchun idorama-idora yugurmasligi, o‘z boshidan kechirgan dahshatli voqeani qayta-qayta so‘zlab berishga majbur bo‘lmasligi kerak. Aksincha, davlatning o‘zi uning yoniga borishi, unga yordam qo‘lini cho‘zishi, huquqlari va xavfsizligini ta’minlashi shart.

Shu nuqtayi nazardan, qonun loyihasining mazmun-mohiyati shundan iboratki, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning hech bir ko‘rinishi e’tiborsiz qolmasligi, har bir aniqlangan holat qonun doirasida baholanishi, aybdorlar qilmishiga yarasha qat’iy javob berishi kerak. Bu borada nafaqat zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar, balki bolalarni himoya qilish bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarmagan mas’ullarning ham javobgarligini belgilash muhimdir.

Majlisda qonun loyihasining qabul qilinishi bolalarning hayoti, sog‘ligi, sha’ni va qadr-qimmati himoyasiga hamda zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlangan bolalarning huquqlarini tiklash va jamiyatda bunday qilmishlarga nisbatan murosasiz munosabatni yanada mustahkamlashi qayd etildi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar

Deputatlar “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqdi.

U tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali yanada ishonchli himoya qilish, tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha nizolarni ko‘rib chiqishda iqtisodiy sudlarning vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan.



Amalda tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha aktivlarni belgilangan muddatlarda qaytarish ta’minlanmagan taqdirda, rezidentlarga qaytarilmagan aktivlar summasidan kelib chiqib moliyaviy jarimalar qo‘llaniladi.

Huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili ayrim holatlarda tadbirkor tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun o‘ziga bog‘liq barcha choralarni ko‘rgan bo‘lsa-da, xorijiy hamkorning harakatlari, to‘lov tizimlaridagi cheklovlar yoki boshqa obyektiv omillar sababli aktivlarni o‘z vaqtida qaytarish imkoni bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, amaldagi tartib sudlarga bunday holatlarni to‘liq inobatga olib, jarima miqdorini mutanosib ravishda kamaytirish imkonini yetarlicha bermaydi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, iqtisodiy sudlar tomonidan mazkur toifadagi ishlar bo‘yicha 2024-yilda 3,5 mingga yaqin tadbirkorlarga 752 mlrd. so‘mlik, 2025-yilda esa 9,1 mingdan ortiq ishbilarmonlarga 3,3 trln. so‘mlik moliyaviy jarimalar qo‘llanilgan. Bu esa tashqi savdo faoliyatida insofli harakat qilgan tadbirkorlar manfaatlari himoyasining qo‘shimcha huquqiy mexanizmlarini yaratish zaruratini ko‘rsatadi.

Shu bois loyihada jarima miqdorini 50 foizga kamaytirish nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Lizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi

Majlisda yakka tartibdagi tadbirkorlarning lizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Ushbu hujjat bilan Fuqarolik kodeksi va “Lizing to‘g‘risida”gi Qonunga yakka tartibdagi tadbirkorlarning lizing olish imkoniyatlarini kengaytirish, lizing munosabatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Xususan, “lizing oluvchi” tushunchasiga aniqlik kiritilib, yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs lizing oluvchi sifatida e’tirof etilishi belgilanmoqda. Bu orqali yakka tartibdagi tadbirkorlarning lizing munosabatlaridagi huquqiy maqomi aniq ko‘rsatiladi.

Loyihada lizing obyektini hisobga olish tartibini takomillashtirish, bunda lizing obyekti lizing oluvchining balansida hisobga olinishi ham aks etmoqda. Lizing oluvchi yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan hollarda esa lizing obyekti lizing beruvchining balansida hisobga olinishi tadbirkorlarda buxgalteriya balansi mavjud emasligi bilan bog‘liq holda lizing xizmatlaridan foydalanishdagi cheklovni bartaraf etishga xizmat qiladi. Natijada yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun lizing xizmatlaridan foydalanishning huquqiy mexanizmi yaratiladi.

Qonun loyihasida lizing obyektining huquqiy va mulkiy egaligi, amortizatsiyani qo‘llash tartibi, shuningdek, lizing obyektidan foydalanish shartlari va cheklovlari shartnomada majburiy tartibda ko‘rsatilishi nazarda tutilmoqda. Bu lizing munosabatlarida huquqiy aniqlikni ta’minlash va shartnoma shartlarini bir xil yondashuv asosida shakllantirishga imkon beradi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Profilaktika inspektorlarining fidokorona xizmati e’tirof etilmoqda

Majlisda ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat – “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori” faxriy unvonini ta’sis etish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bo‘ldi.

Ushbu hujjat bilan “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori” faxriy unvonini ta’sis qilish taklif etilmoqda.

Mazkur faxriy unvon huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga barham berish, jamoat tartibini saqlash hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish yo‘nalishida uzoq yillar samarali mehnat qilgan, o‘zining yuksak kasbiy mahorati, fidoyiligi va namunali xizmat faoliyati bilan alohida ibrat ko‘rsatgan ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlariga berilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasi bilan “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvonlarini ta’sis etish to‘g‘risida”gi qonunlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilyapti. Faxriy unvonga sazovor bo‘lgan shaxsga tegishli ko‘krak nishoni topshirilishi, uning tavsifi va tashqi ko‘rinishi qonunchilikda belgilanishi ko‘zda tutilmoqda.

Dilbar MAMAJONOVA,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– Bugungi kunda profilaktika inspektorlari mahallalarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ayniqsa, hududlarda tinchlik va osoyishtalikni saqlashga hissa qo‘shmoqda. Yangi faxriy unvonning ta’sis etilishi profilaktika inspektorlarining jamiyatdagi o‘rni va kasbiy nufuzini yanada oshirish, ularning fidokorona mehnatini munosib rag‘batlantirish, xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishga bo‘lgan intilishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Shahvoniy shilqimlikka oid ishlarga huquqiy baho berishda prokuror ishtiroki ta’minlanadi

Deputatlar voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqdi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda bolalar huquqlarini ishonchli ta’minlash, ularni har qanday tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda jamiyatda bunday holatlarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilgan shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan xatti-harakatlarda jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik alomatlarini aniq chegaralash va ularga huquqiy baho berishda prokuror ishtirokini ta’minlash zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu hujjat bolalarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, bu boradagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish hamda ularga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega harakatlarning oldini olishga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 282-moddasiga voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan shahvoniy shilqimlik bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarlikka oid ish hujjatlarini prokurorning huquqbuzarlik holatida jinoyat alomatlari mavjud emasligi haqidagi qarori olinganidan so‘ng sudga yuborishni nazarda tutuvchi qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritilmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar hujjatning ahamiyati yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, uni yanada takomillashtirish bo‘yicha qator takliflar berdi. Mutasaddilar ko‘tarilgan savollarga atroflicha javob qaytarib, bildirilgan takliflar loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida inobatga olinishini qayd etdi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda sanatoriy-kurort muassasalari hamda dam olish tashkilotlari obyektlari soni 749 tani tashkil etgan.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 19 279 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G‘. Bahromov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 00.40 Topshirildi – 00.50 1 2 3 4 5 6